



IMPROVING ECOLOGICAL EDUCATION AND ECOLOGICAL CULTURE IN SOCIETY

Ergashev Shukurullo Luqmonjon oglu

1st year master's student, ecology, master's department, Fergana State University.

Muhammadjonova Gulshanoy Ilhomjon qizi

2nd year master's student, ecology, master's department, Fergana State University

Abstract: *This article is devoted to the study of the development of ecological culture and the enhancement of environmental education in society. Within the framework of the research, the essence, significance, and methods of forming environmental education and culture were examined. The research methodology includes literature review, observation, and surveying. The results indicate that to increase the ecological culture and environmental awareness of the population, it is necessary to strengthen environmental education within the educational system, cover environmental issues in the mass media, and unite the efforts of state and public organizations. Additionally, improving environmental legislation and strengthening responsibility for violating environmental norms are recommended. In conclusion, raising the ecological culture of the entire society is of great importance for achieving environmental sustainability.*

Keywords: *environmental education, environmental protection, ecological culture, environmental awareness, ecological upbringing.*

Annotatsiya: *Ushbu maqola jamiyatda ekologik madaniyatni rivolantirish hamda ekologik ta'limni yuksaltirish masalalarini o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqot doirasida ekologik ta'lim hamda madaniyatning mohiyati, ahamiyati va uni shakllantirish usullari ko'rib chiqildi. Tadqiqot metodologiyasi adabiyotlar tahlili, kuzatish va so'rovnoma o'tkazishni o'z ichiga oldi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, aholining ekologik madaniyati va ekologik ongini oshirish uchun ta'lim tizimida ekologik ta'limni kuchaytirish, ommaviy axborot vositalarida ekologik mavzularni yoritish, davlat va jamoat tashkilotlarining sa'y-harakatlarini birlashtirish zarur. Shuningdek, ekologik qonunchilikni yuksaltirish, ekologik normalarni buzganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish tavsiya etiladi. Xulosa qilib*



aytganda, ekologik barqarorlikkaga erishish uchun butun jamiyatning ekologik madaniyatini yuksaltirish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Kalit soʻzlar: *ekologik ta'lim, atrof-muhit muhofazasi, ekologik madaniyat, ekologik ong, ekologik tarbiya.*

Аннотация: *Данная статья посвящена изучению вопросов развития экологической культуры и повышения уровня экологического образования в обществе. В рамках исследования рассмотрены сущность, значение и методы формирования экологического образования и культуры. Методология исследования включает анализ литературы, наблюдение и проведение опроса. Результаты показывают, что для повышения экологической культуры и экологического сознания населения необходимо усиление экологического образования в системе просвещения, освещение экологических тем в средствах массовой информации, а также объединение усилий государственных и общественных организаций. Также рекомендуется совершенствование экологического законодательства и усиление ответственности за нарушение экологических норм. В заключение отмечается, что повышение экологической культуры всего общества имеет важное значение для достижения экологической устойчивости.*

Ключевые слова: *экологическое образование, охрана окружающей среды, экологическая культура, экологическое сознание, экологическое воспитание.*

KIRISH

Jahonda kechayotgan global oʻzgarishlar ekologik jarayonlarni avj oldirib yubordi. Ushbu muammolarni hal qilishda insonning ekologik madaniyati va ekologik tarbiyasi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. XXI asrda, inson va tabiat oʻrtasidagi ekologik uygʻunlik muammosi eng muhim muammolardan biri hisoblanadi. Ming yillar davomida odamlar toza suv ichdilar va toza havodan nafas oldilar. Ammo keyinchalik ilmiy texnikaviy inqilob boshlandi va ekologiya tez yomonlasha boshladi. Afsuski, bu jarayon toʻxtamaydi, tobora kuchayib bormoqda. Ekologik muammolarning tobora global ahamiyat kasb etib borayotganligi inobatga olinib, soʻnggi yillarda muhim ustuvor vazifalar bilan bir qatorda atrof muhit muhofazasi, ekologik madaniyat, ekologik taʼlim-tarbiya, ekologik maʼrifat masalalariga alohida eʼtibor berilmoqda. “Inson tomonidan biosferaga



ko'rsatilayotgan ta'sirni tartibga solish, ijtimoiy taraqqiyot bilan qulay tabiiy muhitni saqlab qolishning o'zaro ta'sirini uyg'unlashtirish, inson va tabiatning o'zaro munosabatlarida muvozanatga erishish muammolari borgan sari dolzarb bo'lib qolmoqda. Ekologik xavfsizlik kishilik jamiyatining buguni va ertasi uchun dolzarbligi, juda zarurligi bois eng muhim muammolar jumlasiga kiradi. Bu muammolar amaliy tarzda hal etilsa, ko'p jihatdan hozirgi va kelgusi avlod turmushining ahvoli va sifatini belgilash imkoniyatini beradi"[1].

Bugungi kunda insoniyat tabiatga jiddiy zarar etkazganiga qaramay, uni asl holatiga qaytarish uchun barcha imkoniyatlarga ega. Ekologik vaziyatni yaxshilashga ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biri jamiyatning har bir a'zorida zamonaviy ekologik dunyoqarashni shakllantirishdan iborat. XXI - asr ekologiya asri bo'lishi shubhasizdir. Har bir inson ona sayyoramiz tabiatiga ziyon etkazmasdan o'zgartirish, tabiiy boyliklaridan oqilona foydalanish va yashash muhitini saqlashdek muqaddas ishga o'zining munosib hissasini qo'shishi lozimdir.

Ekologik madaniyatni rivojlantirish ta'lim tizimining ajralmas qismiga aylanishi lozim. Bugungi kunda ekologik ta'lim va tarbiyaning mushtarak-mujassam, uzluksiz, barcha uchun tushunarli tizimini yaratish muammosi ham dolzarb bo'lib turibdi. Kishilarda ekologik madaniyatni tarbiyalash, ularning dam olishini, atrof-muhitni asrash borasidagi faoliyatini tashkil etish masalalari kun tartibida turgan eng muhim muammolardan biridir. Ma'naviy-ma'rifiy muassasalar, ommaviy axborot vositalari bilan o'zaro hamkorlikda ularni mustahkamlash, chuqurroq tahlil qilish vazifalarini bajaradi. Ekologik madaniyatni shakllantirishga mutassaddi muassasalar kishilarning tabiatni muhofaza qilish imkoniyatlarini namoyon etishlari uchun, zarur shart-sharoitlarni yaratish borasida, davlat yoki nodavlat tashkilotlari, jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikdagi faoliyati bu boradagi ishlarning samarasini oshiradi. Insoniyat hozirgi kunda global ekologik muammolarga duch kelmoqda. Atrof-muhitning ifloslanishi, iqlim o'zgarishi, biologik xilma-xillikning qisqarishi kabi muammolar nafaqat alohida mintaqalar, balkibutun sayyoramiz uchun xavf tug'dirmoqda. Ushbu muammolarni hal qilish uchun texnologik yechimlar bilan bir qatorda, insonlarning ekologik ongi va madaniyatini oshirish zarur [2].

Ekologik ta'limning dolzarbligi mamlakatimiz tabiati, ekotizimlari, atrof muhitni beqarorlik va izdan chiqishdan asrash, aholining ekologik madaniyatini oshirish, ushbu o'ta jiddiy, hayotiy masalalarga aholining barcha qatlamlari, ayniqsa, yoshlar hissa qo'shishi zarurligi bilan belgilanadi. Yurtimizda ekologik ta'limni



rivojlantirish bo'yicha tegishli normativ huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Jumaladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasida ekologik ta'limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 15.05.2025 yildagi PQ-184-sonli "2030-yilgacha bo'lgan davrda aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" qarori qabul qilindi.[3.4]

Ekologiya va atrof-muhit muhofazasiga doir kadrlar tayyorlash tizimini qayta ko'rib chiqish ekologik qonunchilik bazasini har tomonlama tahlil qilish va uni amaliyot bilan bog'lash mexanizmini yaratish, milliy ekologik ta'limning majburiylik prinsipini amalda qo'llash, ekologik ta'limni barqaror rivojlanish qoidalariga mos ravishda qayta ko'rib chiqish kabi masalalarni hal etishga undaydi. Hozirgi vaqtda ekologiyaning asosiy vazifasi tiriklikning yashashiga yordam berishdir, chunki antropogen omillarning tabiatga salbiy ta'sir qilishi kuchayib bormoqda, natijada jamiyat va tabiat orasidagi muvozanat buzilib, atrof-muhitga salbiy ta'sir kuchaymoqda. Ekologik madaniyat tushunchasi atrof-muhitga mas'uliyatli munosabatni, tabiat bilan uyg'un yashashta moyillarini anglatadi [5]. U insonning kundalik turmush tarzi, iste'mol odatlari, qadriyatlari va dunyoqarashida namoyon bo'ladi. Ekologik madaniyat yoshlikdan oilada, ta'lim tizimida shakllantirilishi va butun hayot davomida rivojlantirilishi lozim.

Ekologik madaniyat — bu insonning tabiatga bo'lgan munosabati, uni muhofaza qilishdagi ma'suliyati va ekologik ongini aks ettiruvchi asosiy ko'rsatkichdir. Shu sababli, ta'lim jarayonida ekologik madaniyatni shakllantirish va rivojlantirish masalasi ilmiy va pedagogik yondashuvni talab etadi.

METODLAR VA ADABIYOTLAR TAHLILI:

Tadqiqotda adabiyotlar tahlili, kuzatish, anketa va so'rovnoma metodlaridan foydalanildi. Ekologik madaniyat va uni rivojlantirish masalalari bo'yicha ilmiy manbalar, xalqaro tashkilotlar va davlat organlari hujjatlari o'rganildi. Xorijiy mamlakatlar tajribasi tahlil qilindi [5].

Aholining ekologik madaniyat darajasini baholash maqsadida so'rovnoma o'tkazildi. So'rovnomada Farg'ona shaxrining turli yoshdagi 100-150 nafar fuqarosi ishtirok etdi. Ishtirokchilar tasodifiy tanlash asosida tanlab olindi. So'rovnoma 15 ta savoldan iborat bo'lib, ekologik bilimlar, ekologik xatti-harakatlar va qadriyatlarni o'z ichiga oldi. Bundan tashqari, maktablar, texnikum hamda oliy o'quv yurtlari va korxonalarda ekologik madaniyatni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan



ishlar kuzatildi. Kuzatuv jarayonida suhbatlar o'tkazildi, foto va videomateriallar to'plandi. Tadqiqot chog'ida xalqaro tashkilotlar va rivojlangan davlatlarning ekologik madaniyatni yuksaltirish borasidagi sa'y-harakatlariga e'tibor qaratildi. BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari [7], Yevropa Ittifoqining "Yashil kelishuv" strategiyasi va boshqa tashabbuslar o'rganildi. [8]

"Ekologik ta'lim – maqsadli yo'naltirilgan reja asosida tizimli ekologik bilim, madaniyat, malaka va o'quvni rivojlanish jarayonida o'rganib borishdir. Shuningdek, ekologik madaniyatning shakllanishi – ekologik ong va tushunchani shakllanishi bo'lib, atrof-muhit bilan chambarchas bog'liq bo'lishdir. Ekologik madaniyatning asosiy g'oyasi – inson va tabiat o'rtasidagi bog'liqlik moddiy tomondan emas, balki ma'naviy jihatdan bo'lishi kerak" [9] deydi D.Yo.Yormatova. Bu ayni haqiqat odamlar ma'naviy, vijdonan atrof muhitga ijobiy munosabatda bo'lishi zarur hisoblanadi.

NATIJALAR:

So'rovnoma natijalari shuni ko'rsatdiki, aholining 65% ekologik muammolardan xabardor, ammo ularning faqat 30% kundalik faoliyatida ekologik tamoyillarga amal qiladi. Aholining 80% maktab va oliy o'quv yurtlari, texnikumlarda ekologik ta'limni kuchaytirish zarurligini ta'kidlaydi. Kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, ayrim maktab va universitetlarda ekologiya fanidan darslar o'qitilsa-da, o'quv dasturlari va o'qitish metodikasi takomillashtirishga muhtoj. Shuningdek, ekologik targ'ibot va amaliy tadbirlar yetarli darajada emas. Korxonalarda chiqindilarni boshqarish, energiya va resurslardan oqilona foydalanish bo'yicha ishlar olib borilmoqda. Lekin bu jarayonlar barcha korxonalarni qamrab olmagan va tizimli tusga ega emas.

TAHLIL VA MUHOKAMA:

Olingan natijalardan ko'rinib turibdiki, aholining ekologik madaniyat darajasi hali yetarli emas. Buborada ta'lim tizimi muhim rol o'ynaydi. Barcha bosqichlarda ekologik ta'limni kuchaytirish, o'quv dasturlariga ekologik mavzularni kiritish zarur. O'quvchilarni ekologik loyihalarda ishtirok etishga jalb qilish, maktabdan tashqari ekologik to'garaklarni tashkil etish foydali bo'lardi. Ommaviy axborot vositalari ham jamiyatning ekologik madaniyatini shakllantirishda katta ahamiyatga ega [10]. Gazeta va jurnallar, televideniye va internet ekologik mavzularni yoritish, tabiatni asrashga chaqiruvchi roliklarni efirga uzatish, interaktiv ekologik loyihalarni amalga



oshirish imkoniyatiga ega. Ekologik madaniyat faqat ta'lim va targ'ibot bilan cheklanmaydi. Davlat siyosati va qonunchiligini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega [11]. Chiqindilar va ifloslanishni boshqarish, tabiatni muhofaza qilish bo'yicha normalarni kuchaytirish, ekologik normalarni buzganlik uchun javobgarlikni oshirish lozim. Shuningdek, davlat organlari, biznes va fuqarolik jamiyati hamkorligini yo'lga qo'yish zarur. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ekologik madaniyatni shakllantirish murakkab va ko'p qirrali jarayon. U ta'lim, ommaviy axborot vositalari, qonunchilik va boshqa omillarning o'zaro ta'sirini talab qiladi. Shuningdek, bu ishda xalqaro hamkorlik, rivojlangan mamlakatlar tajribasini o'rganish muhim rol o'ynaydi. Ekologik madaniyatni shakllantirishda yoshlarning roli alohida ahamiyatga ega. Yoshlar yangilikka intiluvchan, g'oyalarga boy va faol bo'lib, ular orqali ekologik g'oyalarni keng yoyish mumkin [12]. Oliy o'quv yurtlari va maktablarda ekologik to'garaklarni tashkil etish, yoshlarni ekologik aksiyalar va tadbirlarga jalb qilish, ularning tabiat muhofazasi bo'yicha tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash zarur. Biroq, ekologik madaniyatni shakllantirish faqat yoshlar bilan cheklanmasligi kerak. Butun jamiyatni, jumladan, katta yoshdagi aholini ham bu jarayonga faol jalb qilish lozim. Mahalla va qishloqlarda ekologik mavzulardagi uchrashuvlar, davra suhbatlari o'tkazish, atrof-muhitni tozalash va ko'kalamzorlashtirish bo'yicha hasharlar tashkil etish mumkin [13].

Din va madaniyat ham ekologik ong va xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatadi. Islom dini tabiatni asrash, isrof qilmaslikka da'vat etadi. Shu bois, diniy tashkilotlar va ulamolar ekologik targ'ibotda faol ishtiroketishi, odamlarga tabiatga mas'uliyatli munosabatda bo'lish zarurligini tushuntirishi foydali bo'lardi. Tahlillar davlatning ekologik siyosat doirasidagi sa'y-harakatlari hali yetarli emasligini ko'rsatmoqda. Hukumat ekologik dasturlarni moliyalashtirish, subsidiya va imtiyozlar berish, ekologik tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash kabi iqtisodiy mexanizmlardan kengroq foydalanishi lozim. Bu esa o'z navbatida korxonalarini ekologik talablarga rioya qilishga, "yashil" texnologiyalarni joriy etishga undaydi. Atrof-muhitni muhofaza qilish nafaqat davlat va jamoatchilik, balki har bir fuqaro mas'uliyatidir. Insonlar kundalik turmushda ekologik tamoyillarga amal qilishlari - suv, energiya va boshqa resurslarni tejashlari, chiqindilarni kamaytirish va saralashlari, ekologik toza mahsulotlarni afzal ko'rishlari lozim. Faqat har birimiz o'z hissasini qo'shsagina, sog'lom atrof-muhit va barqaror kelajakka erishish mumkin. Ekologik savodxonlik va madaniyat, avvalo, oiladan boshlanadi. Ekologik dunyoqarashni shakllantirishning negizi oiladagi tarbiyaga bevosita bog'liqdir. Agar bu masala



oilada to'g'ri yo'lga qo'yilmagan bo'lsa, uni maktablarda, keyingi ta'lim bosqichlarida hamda mehnat jarayonlarida qaror toptirish qiyin bo'ladi.[13]

Ekologik madaniyat, ta'lim va tarbiyani olib borishda ommaviy axborotning roli juda katta. Birgina televideniya orqali ekologik mazmundagi ko'rsatuvlarning doimiy ravishda berib borilishi aholi, ayniqsa, yoshlarda ekologik madaniyatni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Yoshlarga ekologik ta'lim-tarbiya berish orqali ularda yuksak ekologik ong, tabiat resurslaridan oqilona foydalanish, atrof-muhit muhofazasi, biologik xilma-xillikni muhofaza qilishdek yuksak vazifalarni bajarishga hissa qo'shish zarur. Xalqimizni milliy hamda diniy qadriyatlari shaxsiy gigena, tozalik va ozodalikdan tortib o'zi yashab turgan joyini turli xil chiqindilar bilan ifloslantirmaslik, tabiat ne'matlarini isrof qilmaslik, atrofni ko'kalamzorlashtirishni keng targ'ib etadi. Ushbu tushunchalar insonlarning yoshligidanoq o'z oilasidagi keksa avlod vakillari tomonidan ular ongiga singdirib boriladi. Demak insonda dastlabki tushunchalar o'z oilasi paydo bo'ladi. Keyinchalik tushunchalar bog'cha, maktab, texnikum, oliy o'quv yurtlarida kengaytiriladi va rivojlantiriladi.

XULOSALAR:

Jamiyatda ekologik madaniyatni shakllantirish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir. U atrof-muhit muhofazasi, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va barqaror rivojlanishga erishish uchun zarur. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, aholining ekologik madaniyati va ongi hali yetarli darajada emas. Shu bois, ekologik ta'lim va tarbiyani ta'lim tizimining barcha bosqichlarida kuchaytirish, o'quv dasturlari va o'qitish metodikasini takomillashtirish lozim. Ommaviy axborot vositalari ekologik mavzularni keng yoritishi, insonlarni tabiatni asrashga da'vat qilishi zarur. Buning uchun maxsus ekologik dasturlar, roliklar va loyihalarni ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Davlat ekologik qonunchilikni takomillashtirishi, ekologik normalarni buzganlik uchun javobgarlikni kuchaytirishi, ekologik tadbirlarni moliyalashtirishi va rag'batlantirishi lozim. Shuningdek, ekologik siyosatni ishlab chiqishda jamoatchilik ishtirokini ta'minlash muhim. Barqaror rivojlanishga erishish, sog'lom atrof-muhitni saqlash va kelgusi avlodlarga yetkazish uchun butun jamiyatning sa'y-harakatlarini birlashtirish zarur. Bu jarayonda davlat organlari, ta'lim muassasalari, ommaviy axborot vositalari, biznes va nodavlat tashkilotlar hamkorlik qilishi lozim. Ekologik madaniyatni shakllantirish uzoq muddatli vazifa bo'lib, doimiy e'tibor va sa'y-harakatlarni



talabqiladi. Faqat shu yo‘l bilan tabiat va inson o‘rtasidagi muvozanatni saqlab qolish, insoniyat farovonligini ta‘minlash mumkin. Ekologik madaniyatni rivojlantirish bugungi kun ta‘lim tizimining asosiy vazifalaridan biri bo‘lib, u yosh avlodni tabiatni muhofaza qilish va ekologik mas‘uliyatni o‘z zimmasiga olishga undaydi. Ta‘lim muassasalarida ekologik tarbiyaga yo‘naltirilgan zamonaviy pedagogik metodlardan foydalanish orqali jamiyatda barqaror ekologik rivojlanishga erishish mumkin. Kelgusida ekologik madaniyatni shakllantirishga oid yangi ilmiy tadqiqotlar o‘tkazish va amaliyotga joriy qilish zarur. Shu bilan birga, ta‘lim jarayoniga ekologik bilimlarni keng qamrovli integratsiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Ekologik ta‘lim-tarbiya va madaniyatning asosiy maqsadi yoshlarning faqat shaxsiy ehtiyojlarini qondirishdan iborat emas, balki jamiyat manfaatlariga ham yo‘naltirishni e‘tiqod darajasiga ko‘tarishdir. Chunki, har qanday ekologik faoliyat faqat konkret shaxsning ehtiyojlarini emas, balki pirovardida jamiyat ehtiyojlarini qondirishga qaratilgandir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. suvonqulov, jamshid. (2020). Ўрмонларни муҳофаза қилиш соҳасида жамоат назоратининг ҳуқуқий асослари . Архив Научных Публикаций JSPI, 1(49). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/5174
2. Hayitova, Y. (2021). Some Strokes To The Poem Of The Shodmonkul Salom. Theoretical&Applied Science Учредители: Теоретическая и Прикладная Наука,(10), 1033-1036.
3. <https://lex.uz/ru/docs/-4354743>
4. <https://lex.uz/docs/-7528761>
5. Raushana, K. (2023). Transformation Processes Of Women'S Mentality In Uzbekistan. EpraInternational Journal Of Socio-Economic And Environmental Outlook (Seeo), 10(4), 43-45.
6. Kurbaniyazova, R. K. (2023). Yangi O ‘Zbekistonda Ayol-Qizlar Mentaliteti ShakllanishigaE’ Tiborning Kuchayishi. Academic Research In Educational Sciences, 4(3), 605-615.
7. Yusubov, J. K., Bobomurodov, E. H., Kurbaniyazova, R. K., Khadjiev, U. S., & Samanova, S. B.(2022). The Role Of Central Asian Scholars In Modern Education. Res Militaris, 12(3), 3762-3769.5.



8. Kurbaniyazova, R. (2021). Virtues Of Tolerance And Solidarity In The Uzbek Mentality. Interconf
9. suvonqulov, jamshid. (2020). Қишлоқда экология муаммолари. Архив Научных Публикаций JSPI, 1(49). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/5168
10. Ahmatilloeyevna, I. N. (2022). Various Objectives In Test Development. Academicia Globe, 3(01),27-30.
11. Ahmatilloeyevna, I. N., & Abdusalimovna, K. B. (2022). Distribution Of UssianWordsInEnglish. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(1), 744-746.
12. Turabekova, S., & Ibadova, N. (2024, April). Different Ways Of Improving ListeningSkillInLearning Foreign Languages. In Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit (Pp. 236-238).
13. Ekologik madaniyatning yoshlar hayotidagi o‘rni ergashev shukurullo
14. Yuksak ekologik madaniyat -barqaror rivojlanish garovi Ergashev Shukurullo
15. Ekologik madaniyatning yoshlar hayotidagi o‘rni. Farg‘ona davlat universiteti botanika, biotexnologiya va ekologiya kafedrasida 4- kurs talabasi Shukurullo Ergashev.
16. Nazarova, L. (2023). Ekologik madaniyat va barqaror rivojlanish. Toshkent: Yangi asr nashriyoti.
17. Abdullayeva, N. (2021). Ekologik madaniyatni shakllantirishda innovatsion yondashuvlar. Oliy ta’lim ilmiy jurnali, 2(5), 45-52.
18. Jamiyatda ekologik madaniyatni shakllantirish Pulatova Nigora Rahimjonovna